



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No5(5)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 330 sahifa,
22-may, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Matematika fanini o'qitishda kommunikativ va ijtimoiy-psixologik yondashuvlar	10
<i>Esonturdiyev Mamatqobil Nurmamatovich</i>	
Geografik axborot tizimlari (GAT) texnologiyalari asosida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining innovatsion kompetentligini rivojlantirish metodikasi	13
<i>Bahromova Muhayyo Imomqul qizi</i>	
Geografiya ta'limida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning nazariy-metodik asoslari	18
<i>Tuyg'unov Murodjon Salimqul o'g'li</i>	
Biologiyani o'qitishda belgili-ramziy ko'rgazmalilik vositalaridan foydalanishning o'quvchilarning tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishdagi roli	22
<i>Azimov I. T., Daminova F. A.</i>	
PISA 2025 doirasida raqamli ta'lim kompetensiyalarini baholashning innovatsion mexanizmlari	25
<i>Doniyorov Muxiddin Normamatovich, Ishanov Almat Adilxanovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tabiiy savodxonligini oshirishda zamonaviy pedagogik vositalarni qo'llash	28
<i>Abdunazarov Bobir Normurodovich</i>	
Raqamli ta'lim resurslari asosida kredit-modul tizimida talabalarning o'quv faoliyatini takomillashtirish	32
<i>Jumayeva Ra'no To'ychi qizi</i>	
Oila va maktab integratsiyasining shaxs kamolotiga ta'siri	36
<i>Rasulova Dildora Shuhratovna, Raxmatova Zulxumor Alimovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda kreativ kompetensiyani shakllantirishning zamonaviy pedagogik mexanizmlari va uning ijtimoiy ahamiyati	40
<i>Sultanova Sahobar Ravshanbekovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik tarbiyani shakllantirishda tabiiy fanning o'rni	43
<i>G'afforova Zarnigor Abdumo'min qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'limda o'qituvchi va ota-onalar ijtimoiy hamkorligini rivojlantirish	47
<i>Xalikova Zaxro Mirshadmanovna, Xolbo'tayev Muzaffar Odilovich, Bozorova Xadicha Javlon qizi</i>	
Nutqida kechikish kuzatiladigan bolalarda nutqni qo'l va barmoq motorikasini rivojlantiruvchi o'yinlar orqali shakllantirish	51
<i>Ne'matova Hilola Ikrom qizi, Ahmadova Fotima Adizovna</i>	
Taym menejment asosida bo'lajak o'qituvchilarda liderlik fazilatlarini rivojlantirish	55
<i>Soliyeva Ruxsora Sharobiddin qizi</i>	
Sun'iy intellekt va NLP texnologiyalari asosida elektron ta'lim muhitida talabalarning mustaqil ta'lim kompetensiyalarini rivojlantirish	58
<i>Otakishiyeva Gulshano Abdulaziz qizi</i>	
Pedagogik kvalimetriya asosida bo'lajak o'qituvchilarning diagnostik madaniyatini shakllantirishning nazariy asoslari	61
<i>G'aniyeva Muattarxon Nodirbek qizi</i>	
Образовательные технологии с учётом восприятия цвета: психологические и методические аспекты	64
<i>Имамова Хурият Эргаш кизи</i>	
Yosh erkin kurashchilarda chidamlilikni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish	69
<i>Ergashov Qaxramonjon Asqarovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mantiqiy masalalar yechishga o'rgatish usullari	76
<i>G'iyosova Dilovar Orif qizi</i>	
Haykaltaroshlik fanining metodik qo'llanilishi	80
<i>Qodirov Bobirjon Botirjonovich</i>	
Ijtimoiy xavf ostidagi bolalarni qo'llab-quvvatlashning jahon tajribasi va psixologik-pedagogik asoslari	85
<i>Manzura Qosmuratova</i>	



Jahonda art-biznes klasterlarining ahamiyati va rivojlanish tuzilmasi.....	89
<i>A. S. Umarov</i>	
Автоматизация решения сложных математических задач графическим методом для углублённого изучения математики в школе	92
<i>Эргашев Серожиддин Султонмурадovich, Маматов Ислombек Ильесович</i>	
Pedagogika darslarida raqamli va onlayn didaktik o'yinlardan foydalanish.....	97
<i>Qodirova Feruzaxon Abdiyaminovna</i>	
Sun'iy intellekt va tanqidiy fikrlashning kognitiv-konseptual komponenti va uni rivojlantirish metodikasi	102
<i>Sobirova Munavvarxon Qaxramonjon qizi</i>	
Media savodxonlik va axborot madaniyati fanida sun'iy intellekt savodxonligini rivojlantirishning pedagogik-metodik asoslari	106
<i>Ermatov Sherzodbek Latipjonovich, Mirzayev Akramjon O'ktamjonovich</i>	
Adabiy ta'limda kompetensiyaviy yondashuv	111
<i>To'ychiyeva Mahfuza Umarkulovna, Islomova Shalola Ismoil qizi</i>	
Comparative Study of Passive Constructions in English and Their Translation Into Uzbek.....	117
<i>Elmirzayeva Maftuna Dusmurod qizi, Mustafoyeva Nigina Shuhrat qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish orqali pedagogik mas'uliyatni shakllantirishning dolzarb muammolari	122
<i>Botirova Odinaxon Abdumutalib qizi</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'limni tashkil etishning pedagogik modeli va metodik asoslari	126
<i>Haytbayeva S. R.</i>	
Imkoniyati cheklangan bolalarni psixologik qo'llab-quvvatlash orqali intellektual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish imkoniyatlari.....	131
<i>Kadirova Nigora Saxibjanovna</i>	
Bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarini dual ta'lim asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashning nazariy asoslari.....	134
<i>Samiyeva Zuleyxa Uktamovna</i>	
Insonlar orasidagi munosabatlarda noverbal muloqotning komponentlarining ko'rinishlari	139
<i>Soliyev Farxodjon Sodikovich, Karimov Jahongirjon Murodjon o'g'li</i>	
Virtual texnologiyalar vositasida texnika fanlarini o'qitish mazmunini innovatsion rivojlantirish	145
<i>Yuldasheva Dilorom Husniddin qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida suzish mashg'ulotlarini tashkil etish texnologiyasi.....	150
<i>Toshpulatova Aziza Toyirovna</i>	
Harbiy xizmatchilarda kreativ tafakkurni rivojlantirishning pedagogik va psixologik asoslari	155
<i>Tursunov Shaxzod Ramazonovich, Mansurov Sardorbek Sirojiddin o'g'li</i>	
O'qituvchilar ruhiy salomatligini saqlashning amaliy strategiyalari	159
<i>Begmatov Raximkul Olimovich</i>	
Ona tili darslarida analitik faoliyatni tashkil etish imkoniyatlari	164
<i>Narziyeva Mastura Sunnatovna</i>	
Maktabgacha ta'limda Project-Based learning texnologiyasi asosida tarbiyalanuvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari	168
<i>Kubayeva Mavluda, Po'latova Gullola Ravshan qizi</i>	
Talabalarda iqtisodiy savodxonlikni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari	173
<i>Qo'chqorov Nodir Bozorovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini baholash jarayonida foydalaniladigan texnologiyalar va vositalar	178
<i>A'zamqulova Zilola Sunnat qizi</i>	
Raqamli ta'lim muhitida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning didaktik asoslari.....	183
<i>Isaboyeva Dilyora Zokirjon qizi</i>	
Kimyo fanining tarixiy rivojlanishida metodologik yondashuvlar	187
<i>Begamov Shaxzod To'liqin o'g'li</i>	
Sport bilan shug'ullanishda qo'l va oyoq motorikalarini rivojlantirish mezonlari	190
<i>Imomov Asliddin Abdurazoqovich, Sattarov Qarshiboy Narqulovich</i>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	O'zbek va ingliz tillarida zamon kategoriyasining qiyosiy tahlili..... 194 <i>Xudoyberdiyeva Dilfuza Alisher qizi</i>	194
	Hayot faoliyati xavfsizligi fani o'qituvchisining kasbiy kompetentligi va rejalashtirish faoliyati..... 198 <i>Maxmudov Baxtiyor Xayrullayevich</i>	198
	Dizartriyali bolalarda motorikani rivojlantirish – nutqni rivojlantirishning asosiy omili 202 <i>Mamatova Muzayyana Batirovna</i>	202
	Expression of Lexical Economy in English and Uzbek Through Stylistic Means 205 <i>Omonov Baxtiyor Uktamovich</i>	205
	Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy qobiliyatni shakllantirish..... 208 <i>Abrorxonova Kamolaxon Abrorxon qizi, Xamzayeva Sunbula Jasurovna</i>	208
	Xushmuomalalik strategiyalarining ijtimoiy vazifalari..... 212 <i>Alieva Navruza Xabibullayevna, Azizova Sanobarxon Valijon qizi</i>	212
	Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida shaxslilik sifatlarining kasbiy rivojlanishdagi psixologik ahamiyati 216 <i>Dusmetova Maksuda Matnazarovna</i>	216
	Maktabgacha ta'lim jarayonida bo'lajak tarbiyachilarning ilustrativ yondashuv asosida kreativ va variativ faoliyat olib borish usullari va yo'llari..... 221 <i>Egamberdiyeva Madina Sharif qizi</i>	221
	Pragmatic Functions in Neurolinguistic Communication 224 <i>Fayziyeva Parvina</i>	224
	Sahro gavhari: ruslar istilosigacha bo'lgan davrda Xiva me'morchiligi tarixi 227 <i>Islomjon Xoljigitovich Mirzakulov</i>	227
	Moslashuvning psixologik mexanizmlari: ta'lim muhiti sharoitida shaxsning adaptatsiyasi..... 235 <i>Jaynarova Sayyora Isoqul qizi, Nuraliyeva Nasiba</i>	235
	Onalik psixologiyasi va o'rganishning nazariy jihatlari..... 238 <i>Kasimova Xulkar Atabayevna</i>	238
	Spheres of Language Use..... 243 <i>Kumakbayeva Gulbanu Kuntuarovna</i>	243
	Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida kreativ tafakkurni rivojlantirishda nostandart topshiriqlar metodikasi..... 246 <i>Muxammadiyeva Dinora Tursunpulatovna</i>	246
	Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirishning pedagogik mexanizmlari va didaktik tamoyillari..... 251 <i>N. Jurayev</i>	251
	Dunyo bolalari huquqlarini himoya qilish: global muammolar, tizimli kamchiliklar va tanqidiy tahlil 255 <i>Nargiza Ergasheva</i>	255
	Talabalarining dasturlashga oid agoritmik fikrlashini rivojlantirish orqali innovatsion faoliyatga tayyorlash usuli 259 <i>Orziqulova Barchinoy Ixtiyor qizi</i>	259
	Talabalarda o'z-o'zini boshqarish qobiliyatining tuzilmasi va psixologik komponentlari (motivatsion, kognitiv, irodaviy, emotsional-regulyativ komponentlar) 264 <i>Otabekova Nargiza Avazbek qizi</i>	264
	O'zbek va ingliz tillaridagi metaforalarda til va madaniyat uyg'unligi 269 <i>Rasulova Munajat Akmaljonovna</i>	269
	Limitlar nazariyasini kompyuter imitatsion modellar vositasida o'qitish metodikasi..... 273 <i>Safarov Abbas Abdurasul o'g'li</i>	273
	Ijtimoiy hamkorlik – barkamol avlodni tarbiyalash poydevori..... 278 <i>Sharipova Gulruxsor Nurkabilovna</i>	278
	Bo'lajak o'qituvchilarda kreativ kompetensiyani shakllantirishning zamonaviy pedagogik mexanizmlari va uning ijtimoiy ahamiyati..... 282 <i>Sultanova Sahobar Ravshanbekovna</i>	282
	Badiiy gimnastika mashg'ulotlarida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish 285 <i>Tuxtayeva Azizabonu Abdurasulovna</i>	285



Matematika fanini o'zlashtirishda boshlang'ich sinf o'quvchilarining semiotik yondashuvini shakllantirish ...	289
<i>Xayrullayev Ismatulla Nurullayevich</i>	
Pedagogik qadriyatlar asosida o'quvchilarni tarbiyalash mexanizmlarini takomillashtirish	293
<i>Xoliqova Inobatxon Bo'ri qizi</i>	
Umumta'lim maktabida elektron axborot-ta'lim resurslari.....	296
<i>Xolmurodov Shuxrat Okboevich, Norqobilov Hakimbek Nuriddin o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolaning kreativligini shakllantirishda innovatsion muhit	300
<i>Xonnazarova Gulasal Yusuf qizi</i>	
Ta'lim tizimida sinf rahbari faoliyatining joriy etilishining tarixiy asoslari va zamonaviy ko'rinishlari	303
<i>Xusenova Sadoqat Botirovna</i>	
Искусственный интеллект в методике преподавания русского языка: адаптивная обратная связь и развитие коммуникативной компетенции	308
<i>Джалилова Феруза Намазовна</i>	
Образовательные технологии с учётом восприятия цвета: психологические и методические аспекты.....	312
<i>Имамова Хурият Эргаш кизи</i>	
Межкультурный диалог как инструмент воспитания гармоничной личности в школе	317
<i>Махмудхожаев Ориф Бахтиёрович</i>	
Психологические факторы успешности профессионального обучения студентов	319
<i>Рахимходжаева В. С.</i>	
Специфика восприятия окружающего мира в лирике Афанасия Фета	325
<i>Татьяна Викторовна Половинкина</i>	



DUNYO BOLALARI HUQUQLARINI HIMOYA QILISH: GLOBAL MUAMMOLAR, TIZIMLI KAMCHILIKLAR VA TANQIDIY TAHLIL

Nargiza Ergasheva

P.f.f.d. (PhD), Oriental universiteti dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada dunyo miqyosida bolalar huquqlarini himoya qilish masalasi tanqidiy tahlil qilinadi. Asosiy e'tibor qashshoqlik, bolalar mehnati, qurolli mojarolar, ta'lim tizimidagi muammolar, zo'ravonlik va raqamli xavflar kabi omillarga qaratilgan. Shuningdek, xalqaro tashkilotlar va davlat siyosatining samaradorligi baholanadi. Maqolada bolalar huquqlarini to'liq ta'minlash uchun kompleks va tizimli yondashuv zarurligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: bolalar huquqlari, qashshoqlik, bolalar mehnati, ta'lim, zo'ravonlik, inson huquqlari, global muammolar, raqamli xavfsizlik, ijtimoiy himoya.

Abstract: This article provides a critical analysis of the protection of children's rights on a global scale. It focuses on key issues such as poverty, child labor, armed conflicts, challenges in the education system, violence, and digital risks. The effectiveness of international organizations and state policies is also evaluated. The article emphasizes the need for a comprehensive and systemic approach to fully ensure children's rights worldwide.

Key words: children's rights, poverty, child labor, education, violence, human rights, global issues, digital safety, social protection.

Аннотация: В данной статье проводится критический анализ защиты прав детей в мировом масштабе. Основное внимание уделяется таким проблемам, как бедность, детский труд, вооруженные конфликты, проблемы системы образования, насилие и цифровые риски. Также оценивается эффективность международных организаций и государственной политики. В статье обосновывается необходимость комплексного и системного подхода для полноценного обеспечения прав детей.

Ключевые слова: права детей, бедность, детский труд, образование, насилие, права человека, глобальные проблемы, цифровая безопасность, социальная защита.

KIRISH

XXI asrda inson huquqlarini himoya qilish xalqaro hamjamiyatning eng muhim vazifalaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Ayniqsa, bolalar huquqlarini ta'minlash masalasi global siyosat, ijtimoiy taraqqiyot va insonparvarlik tamoyillarining markazida turadi. Shunga qaramay, dunyoning ko'plab hududlarida millionlab bolalar hali ham zo'ravonlik, ekspluatatsiya, qashshoqlik, qurolli mojarolar, majburiy mehnat va ta'limdan cheklanish kabi jiddiy muammolarga duch kelmoqda. Bu holat bolalar huquqlarini himoya qilish bo'yicha mavjud xalqaro tizimlarning samaradorligi va amaliy natijadorligi yuzasidan muhim savollarni yuzaga chiqarmoqda.

Bugungi globallashuv sharoitida bolalar manfaatlarini himoya qilish faqat alohida davlatlarning ichki siyosati bilan cheklanib qolmay, balki xalqaro tashkilotlar, nodavlat institutlar va fuqarolik jamiyati hamkorligini talab qiladigan murakkab jarayonga aylangan. Biroq amaliyotda ushbu tizimlarda bir qator tizimli kamchiliklar – moliyaviy tengsizlik, siyosiy manfaatlar ustuvorligi, nazorat mexanizmlarining sustligi hamda ayrim hududlarda inson huquqlarining ikkinchi darajali masala sifatida qaralishi kuzatilmoqda. Mazkur maqolada dunyo bolalari huquqlarini himoya qilish bilan bog'liq asosiy global muammolar tahlil qilinadi, mavjud xalqaro va milliy mexanizmlarning zaif jihatlari ochib beriladi hamda tizimli kamchiliklarga tanqidiy yondashuv asosida baho beriladi. Shuningdek, bolalar huquqlarini samarali himoya qilish yo'lida xalqaro hamkorlikni kuchaytirish va amaliy mexanizmlarni takomillashtirish zarurati haqida fikr yuritiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bolalar huquqlarini himoya qilish masalasi xalqaro huquq, sotsiologiya, siyosatshunoslik hamda inson huquqlari yo'nalishidagi tadqiqotlarda keng o'rganilgan mavzulardan biri hisoblanadi. Ushbu yo'nalishdagi ilmiy adabiyotlarda bolalar manfaatlarini himoya qilishning huquqiy asoslari, xalqaro tashkilotlar faoliyati, global muammolar va mavjud tizimlarning samaradorligi yuzasidan turli yondashuvlar ilgari surilgan. Avvalo, bolalar huquqlarini himoya qilishning asosiy huquqiy manbasi sifatida 1989-yilda qabul qilingan BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur hujjat bolalarning yashash, ta'lim olish, sog'liqni saqlash, zo'ravonlikdan himoyalanih va erkin rivojlanish huquqlarini xalqaro miqyosda kafolatlovchi asosiy norma sifatida ko'plab tadqiqotlarda tahlil qilingan. Tadqiqotchilar Konvensiyaning universaligini e'tirof etgan holda, uning amaliy ijrosi davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy va siyosiy tafovutlar sababli bir xil darajada ta'minlanmayotganini ta'kidlaydilar.

UNICEF, UNESCO hamda Human Rights Watch kabi xalqaro tashkilotlar hisobotlarida bolalar huquqlariga tahdid soluvchi omillar sifatida qashshoqlik, qurolli mojarolar, majburiy mehnat, odam savdosi va gender tengsizligi alohida ko'rsatib o'tiladi. Xususan, UNICEF tadqiqotlarida rivojlanayotgan mamlakatlarda millionlab bolalarning sifatli ta'lim va tibbiy xizmatlardan foydalana olmayotgani global tengsizlikning asosiy ko'rinishlaridan biri sifatida baholanadi.

Ilmiy adabiyotlarda tizimli kamchiliklar masalasi ham keng muhokama qilingan. Ayrim olimlar xalqaro tashkilotlar faoliyati ko'pincha deklarativ xarakterga ega ekanligini, ya'ni huquqiy hujjatlar mavjud bo'lsa-da, ularni ijro etish mexanizmlari yetarli darajada samarali emasligini qayd etadilar. Shu bilan birga, siyosiy manfaatlar va iqtisodiy qaramlik ayrim davlatlarda bolalar huquqlarining ikkinchi darajali masalaga aylanishiga sabab bo'layotgani ta'kidlanadi.

Umuman olganda, mavjud adabiyotlar bolalar huquqlarini himoya qilish bo'yicha xalqaro tizim shakllanganini ko'rsatsa-da, global miqyosdagi ijtimoiy-iqtisodiy tengsizliklar, siyosiy ziddiyatlar va nazorat mexanizmlarining sustligi ushbu tizim samaradorligini cheklayotganini namoyon etadi. Shu bois tadqiqotchilar tomonidan bolalar huquqlarini himoya qilishda xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, milliy qonunchilikni takomillashtirish hamda amaliy monitoring tizimlarini rivojlantirish zarurligi alohida ta'kidlanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu mavzu bo'yicha tadqiqot olib borgan tadqiqotchilar ta'kidlaganidek, "jamiyatning haqiqiy qiyofasi uning bolalarga bo'lgan munosabatida namoyon bo'ladi" (Nelson Mandela). Ushbu fikr bolalar huquqlarini himoya qilish masalasining nafaqat huquqiy, balki ma'naviy va ijtimoiy ahamiyatini ham ko'rsatadi. Tadqiqot jarayonida nazariy, tahliliy va taqqoshlama metodlar uyg'un holda qo'llanildi. Tadqiqotning nazariy asosini bolalar huquqlariga oid xalqaro huquqiy hujjatlar, xususan, BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi, UNICEF, UNESCO, Human Rights Watch hamda boshqa xalqaro tashkilotlarning rasmiy hisobotlari tashkil etdi. Shuningdek, inson huquqlari va bolalar himoyasi yo'nalishidagi ilmiy maqolalar, monografiyalar va statistik ma'lumotlardan foydalanildi. UNICEF ma'lumotlariga ko'ra, "har bir bola yashash, rivojlanish va himoyalanih huquqiga ega". Bu tamoyil xalqaro bolalar siyosatining asosiy mezonlaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqot davomida tahliliy metod orqali bolalar huquqlarining buzilishiga sabab bo'layotgan asosiy omillar – qashshoqlik, qurolli mojarolar, majburiy mehnat, gender tengsizligi va raqamli xavfsizlik muammolari o'rganildi. Xalqaro hamkorliksiz bolalar huquqlarini global miqyosda to'liq himoya qilish mushkul ekanligi aniqlandi. Ushbu muammolarning xalqaro miqyosdagi ta'siri va oqibatlarini mavjud ilmiy manbalar asosida tahlil qilindi.

Taqqoshlama-huquqiy metod yordamida turli davlatlarning bolalar huquqlarini himoya qilishga oid siyosati va amaliyoti o'zaro solishtirildi. Bu orqali rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasidagi tizimli tafovutlar hamda xalqaro tashkilotlar faoliyatining samaradorlik darajasini aniqlashga harakat qilindi.

Bundan tashqari, tanqidiy yondashuv asosida xalqaro tizimdagi mavjud kamchiliklar, nazorat mexanizmlarining yetarli emasligi va ayrim hollarda siyosiy manfaatlarning bolalar huquqlaridan ustun qo'yilishi masalalari tahlil qilindi. Statistik ma'lumotlarni umumlashtirish va mantiqiy tahlil qilish metodlari orqali tadqiqot natijalarining ishonchliligi ta'minlandi.

Mazkur metodologik yondashuv mavzuni har tomonlama yoritish, global muammolar mohiyatini chuqur anglash hamda bolalar huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha ilmiy xulosalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'rganishlarimiz davomida dunyo miqyosida bolalar huquqlarini himoya qilish borasida sezilarli xalqaro huquqiy baza shakllanganligini ko'rish mumkin. Xususan, BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi deyarli barcha davlatlar tomonidan ratifikatsiya qilingan bo'lsa-da, uning amaliy ijrosi hududlar kesimida bir xil



darajada ta'minlanmayotgani kuzatilmoqda. O'rganishlarimiz natijalari shuni ko'rsatdiki, iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarda bolalar huquqlarini himoya qilish mexanizmlari nisbatan samarali ishlayotgan bo'lsa, rivojlanayotgan va siyosiy beqaror hududlarda bu tizimlar zaifligicha qolmoqda.

Tahlillar asosida bolalar huquqlarining buzilishiga sabab bo'layotgan asosiy omillar sifatida qashshoqlik, qurolli mojarolar, migratsiya, majburiy mehnat va ta'lim tizimidagi tengsizliklar ajratib ko'rsatildi. Ayniqsa, urush va siyosiy inqiroz mavjud hududlarda bolalar zo'ravonlik, ochlik hamda ekspluatatsiyaga ko'proq duch kelayotgani aniqlandi. Qashshoqlik va urush eng avvalo bolalarning kelajagiga zarar yetkazadi. Bunday sharoitlarda xalqaro tashkilotlarning insonparvarlik yordami muhim ahamiyat kasb etsa-da, ularning imkoniyatlari ko'pincha muammoning ko'lamiga nisbatan cheklanganligi kuzatildi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari xalqaro tizimdagi ayrim tizimli kamchiliklarni ham ochib berdi. Jumladan, xalqaro tashkilotlar tomonidan qabul qilinayotgan qarorlarning ijrosini nazorat qilish mexanizmlari yetarli darajada kuchli emasligi sababli ayrim davlatlarda bolalar huquqlarining muntazam ravishda buzilishi davom etmoqda. Siyosiy manfaatlar va iqtisodiy omillar ayrim hollarda inson huquqlari masalasining ikkinchi darajaga tushib qolishiga olib kelayotgani ham kuzatildi. Raqamli texnologiyalar rivojlanishi bilan bog'liq yangi tahdidlar ham tadqiqot davomida alohida tahlil qilindi. Raqamli texnologiyalar taraqqiyoti bilan birga bolalarni internet tahdidlaridan himoya qilish masalasi ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Internet va ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalishi bolalar uchun ta'lim va axborot olish imkoniyatlarini kengaytirgan bo'lsa-da, kiberzo'ravonlik, onlayn ekspluatatsiya va zararli kontentlarning tarqalishi kabi xavflarni ham kuchaytirgani aniqlandi. Bu esa mavjud himoya tizimlarini zamonaviy raqamli xavfsizlik talablariga mos ravishda yangilash zaruratini ko'rsatadi.

Olib borilgan tahlillar asosida bolalar huquqlarini samarali himoya qilish uchun xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, nazorat va monitoring tizimlarini takomillashtirish hamda milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirish zarurligi haqida xulosa qilindi. Shu bilan birga, ijtimoiy himoya, sifatli ta'lim va psixologik qo'llab-quvvatlash tizimlarini rivojlantirish bolalar huquqlarini ta'minlashning asosiy omillaridan biri ekanligi aniqlandi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, bolalar huquqlarini himoya qilish faqat huquqiy hujjatlar qabul qilish bilan cheklanib qolmasdan, ularni amaliyotda samarali qo'llash, xalqaro nazoratni kuchaytirish va jamiyatning barcha qatlamlarini ushbu jarayonga jalb qilish orqali amalga oshirilishi mumkin.

XULOSA

Bolalar manfaatlarini himoya qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lishi lozim. Xalqaro miqyosda bolalar manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan huquqiy mexanizmlar va tashkilotlar faoliyati mavjud bo'lsa-da, ularning amaliy samaradorligi barcha hududlarda bir xil darajada ta'minlanmayapti. Ayniqsa, qashshoqlik, qurolli mojarolar, migratsiya, majburiy mehnat va ijtimoiy tengsizlik kabi omillar bolalar huquqlarining buzilishiga asosiy sabab bo'lib qolmoqda.

O'rganishlar davomida xalqaro tizimdagi nazorat va monitoring mexanizmlarining ayrim hollarda sust ishlashi, siyosiy va iqtisodiy manfaatlarning inson huquqlari masalasidan ustun qo'yilishi mavjud muammolarni yanada murakkablashtirayotgani kuzatilmoqda. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar rivojlanishi bolalar xavfsizligini ta'minlashda yangi tahdidlarni yuzaga keltirayotgani sababli zamonaviy himoya tizimlarini takomillashtirish zarurati kuchaymoqda. Olib borilgan tahlillar asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, bolalar huquqlarini samarali himoya qilish faqat xalqaro hujjatlar qabul qilish bilangina emas, balki ularni amaliyotda to'liq va adolatli qo'llash, davlatlararo hamkorlikni mustahkamlash hamda jamiyatning barcha qatlamlarini ushbu jarayonga faol jalb qilish orqali amalga oshiriladi.

Taklif va tavsiyalar:

1. Bolalar huquqlarini himoya qilishga oid xalqaro konvensiyalar ijrosini nazorat qiluvchi mexanizmlarni kuchaytirish zarur.
2. Rivojlanayotgan mamlakatlarda bolalarni ijtimoiy himoya qilish, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlariga xalqaro moliyaviy yordam hajmini oshirish maqsadga muvofiq.
3. Qurolli mojarolar mavjud hududlarda bolalar xavfsizligini ta'minlash bo'yicha xalqaro tashkilotlarning tezkor amaliy faoliyatini kengaytirish lozim.
4. Bolalar mehnati, odam savdosi va ekspluatatsiyaga qarshi kurashishda davlatlararo hamkorlik hamda huquqiy javobgarlik mexanizmlarini kuchaytirish tavsiya etiladi.
5. Internet va ijtimoiy tarmoqlarda bolalarni zararli axborot hamda kiberzo'ravonlikdan himoya qilish uchun zamonaviy raqamli xavfsizlik tizimlarini rivojlantirish zarur.
6. Jamiyatda bolalar huquqlari bo'yicha huquqiy madaniyatni oshirish maqsadida ta'lim muassasalari va ommaviy axborot vositalari orqali muntazam targ'ibot ishlarini olib borish kerak.

7. Har bir davlat milliy qonunchiligini xalqaro standartlarga mos ravishda takomillashtirib, bolalar manfaatlarini ustuvor yo'nalish sifatida belgilashi lozim.

Mazkur takliflarning amaliyotga tatbiq etilishi bolalar huquqlarini himoya qilish tizimini yanada samarali tashkil etish hamda kelajak avlodning xavfsiz va munosib hayot kechirishini ta'minlashga xizmat qiladi. Zero, har bir bola xavfsiz yashash, sifatli ta'lim olish va erkin rivojlanish huquqiga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. UNICEF Official Website. The State of the World's Children Reports. UNICEF, turli yillar.
2. UNESCO. Global Education Monitoring Report. Paris, turli yillar.
3. International Labour Organization. Child Labour: Global Estimates. Geneva, turli yillar.
4. Philip Alston. Child Poverty and Human Rights. Oxford University Press, 2010.
5. Michael Freeman. A Commentary on the United Nations Convention on the Rights of the Child. Leiden: Martinus Nijhoff Publishers, 2007.
6. John Tobin. The UN Convention on the Rights of the Child: A Commentary. Oxford University Press, 2019.
7. Save the Children. Children's Rights and Protection Reports. London, turli yillar.
8. United Nations Children's Fund. Child Protection Strategy. New York, 2021.
9. Karimov Sh., Axmedov N. Inson huquqlari va bolalar manfaatlarini himoya qilish masalalari. Toshkent: O'zbekiston, 2020.
10. Rasulov A. Xalqaro huquqda bola huquqlari himoyasi. Toshkent, 2021.
11. Yo'ldoshev B. Globalizatsiya sharoitida bolalar huquqlarini himoya qilish muammolari. Toshkent: Fan va texnologiya, 2022.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(5)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.